

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O‘RNI, MAQSADI, VAZIFALARI

Umarova Minavvarxon

*Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

Ilmiy rahbar:

Muqumjon Axunov Muhammadaminovich

(PhD) filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru

Tel: +998979977443

Annotatsiya: *Ingliz va o‘zbek tillarida paremiologik birliklarning tilshunoslikda tutgan o‘rni, maqsadi, vazifalari va ularning tarkibiy tuzilishi va shu bilan bog‘liq bo‘lgan semantikasini o‘rganish. Shu asosda ularni Ingliz va o‘zbek tillarida paremiologik birliklarning leksik-semantik maydonini so‘zlar bilan qiyoslash, har ikkala til uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarni umumlashtirish va shu asnoda qiyoslanayotgan tillarning har biriga xos bo‘lgan xodisalarni ochib berishdir.*

Kalit so‘zlar: *paremiologik, tilshunoslik, notiqlik san‘ati, ibora, kinoya.*

Paremiologik birliklar (olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz nafaqat maqollar balki matallarni ham o‘z ichiga olgani uchun ‘paremiya’ terminini emas balki ‘paremiologik birliklar’ terminini qo‘llashni ma‘qul deb bildik) avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mevasi bo‘lganligi sababli adabiyotshunoslikning o‘rganish obyekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko‘pincha she‘riy-ritmik shaklga ega va ularda o‘xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir nechta tasviriy bo‘yoqlar mavjud. Shu bilan bir qatorda bu birliklar so‘zlardan tuzilib, ma‘lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lganligi uchun tilshunoslikning ham tadqiqot obyekti hisoblanadi. Maqol va matallar ana shu 2 jihatni o‘zida o‘zlashtiradi. H. Berdiyevning “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati”da keltirilishicha, paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm kabi iboralarni ikki planda o‘rganadi:

- 1) adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan;
- 2) lingvistik jihatdan.

Zamonaviy hayotimizda paremiologik birliklarning ahamiyatlilik darajasi yetarlicha baholanmaydi. Paremiologik birliklarni doirasida o‘tkaziladigan tadqiqotlar ta‘lim tizimida anchagina yutuqlarga erishishga yordam berishi mumkin. Paremiologik birliklarni tadqiq qilishning uzoq tarixga boy filologik tadqiqiga qaramay, filologiya fani hali ham bu soha birliklarining semantikasi va lingvistik holati haqida aniq bir to‘xtamga kelgani yo‘q. Bu sohadagi har bir birlik haqida to‘liq va bir yaxlit tushuncha butun bir auditoriya uchun taqdim etilishi kerak. Paremiologik birliklarning lingvistik holati va ularning semantik tuzilishi tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Yuqorida keltirib o‘tilgan xususiyatlar ularni o‘rganishning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Barchaga ma‘lumki, har bir paremiologik birlikning semantikasi sirdan nazar tashlansa ham ularning qanchalik oqilona va dono

eshitiladi. Salbiy ma'noga ega yoki xalq didiga mos kelmagan paremiologik birliklarning tarqalishi qiyindir. Muayyan vaziyatdagi paremiologik birliklar matallarni tashkil etadi. Umumiy qilib aytganda, paremiologik birliklarning asosiy vazifalaridan biri ko'zlangan majoziy ma'no bilan bog'liq bo'lmagan turli sozlardan foydalangan holda vaziyatni oddiy talqin qilishdir.

Paremiologik birliklar odatda kodga o'xshatiladi. Bu o'zgartirib bo'lmaydigan qonunga o'xshatilishi mumkin. Shuningdek, ularning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirish mumkin emas, xuddi qonunlarga bo'ysunmaslik mumkin emasdek. Bu birliklar asrlar qilinayotgan a'mallar, sodir bo'layotgan hodisalar hayot tamoyillariga mos kelish kelmasligini tekshirayotganga o'xshaydi. Va ular orqali anashu prinsiplar avloddan avlodga o'tib boradi. Ta'limda yoshga e'tibor qaratilmagani kabi maqollar ham xoh u katta bo'lsin, xoh kichik, barchani aqlan fikrlashga va, soddaroq qilib aytsak, to'g'ri yo'lga chorlaydi.

Paremiologik birliklarning mavjud bo'lishining mohiyatini anglab yetish shundan iboratki, maqol muayyan vaziyatga aniq fikr beradi, uni yoritadi. Shuningdek, paremiologik birliklar insonlarni estetika jihatdan tarbiyalaydi. Tabiat, inson va mehnat qilish gozalligini tushuntirib insonlarning madaniyatini yuksalishiga sabab bo'adi. Estetik tuyg'ular inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Insonlar esa ularni adabiyotlar o'qish va paremiologik birliklarni teran anglash orqali rivojlantirishlari mumkin.

Paremiologik birliklar shunday qolipga solingan yo'l yo'riqlarki, ular muayyan vaziyatni bir biri bilan alamashtirib bo'lmaydigan iboralar orqali aks ettiradilar. Xuddi matematika fanida qo'llanadigan formulalar kabi maqol va matallar ham chuqur ma'noga ega iboralar ketma ketligidir.

Paremiologik birliklar til adabiyotida xalq og'zaki ijodi janri sifatida o'rganilsa, tilshunoslikda esa doimiy sintaksis sifatida o'rganiladi. Dunyo bo'yicha paremiologik birliklarga berilgan sifatlar balki paremiologik birliklarning sonidan ko'pdir. Quyida ularning ba'zilarini tahlil qilib o'tamiz.

1932-yilda Barlett Jere Uayting paremiologik birliklarga o'zining quyidagi tarifini berib o'tadi: "Maqol – bu xalq tomonidan tuzilganligi sababli, uning shakli va iborada kelib chiqishidan dalolat beruvchi ibora. U ko'rinib turgan asosiy haqiqatni, ya'ni truizumni oddiy tilda ifodalaydi, lekin ko'pincha alliteratsiya va qofiya bilan bezatiladi. Odatda qisqa, lekin bo'lishi shart emas, odatda to'g'ri, lekin bo'lishi shart emas. Ba'zi maqollar ham to'gridan to'g'ri, ham ko'chma ma'noga ega bolib ularning har bir mukammal ma'noga ega bo'lib, ularning har bir mukammal ma'noga ega, lekin ko'pincha ular ikkitadan bittasiga ega. Maqol hurmatni aks ettirishi kerak; u qadimiylik belgisiga ega bo'lishi kerak va bunday belgilarni aqlli adabiyot odami qalbakilashtirishi mumkinligi sababli, u turli vaqtlarda turli joylarda tasdiqlanishi kerak. Ushbu oxirgi talab ko'pincha bizning ixtiyorimizdagi materiallar to'liq bo'lmagan juda erta adabiyotlar bilan ishlashdan voz kechishi kerak".

Paremiologik birliklarning ya'na bir ta'rifini keltiramiz: "Maqol – muallifi bo'lmagan, asosan, turli tillarda ma'lum bo'lgan, bir gapda prinsipni, maslahatni, haqiqiy yoki faraz qilingan haqiqatni, uning asosiy g'oyasini umumiy, ixcham shaklda ifodalaydigan mahxur to'plam iborasi. Umumiy asosga ega bo'lishi yoki hech bo'lmaganda uning foydalanuvchi buni shunday deb hisoblaydi". Qolaversa, nemis maqolshunosi U. Miyder quyidagicha ta'riflaydi maqollarni: "Maqollar – xalqning qisqa, umumiy ma'lum bo'lgan jumalari bo'lib, ularda

hikmat, haqiqat, axloq va an'anaviy qarashlar o'z ichida ma'juziy, qat'iy va yodda qoladigan shaklda ifodalaydi".

Paremiologik birliklarning inson faoliyatidagi o'rni beqiyosdir. Masalan, har qanday notiq nutqining ishonchlik darajasini oshirish uchun paremiologik birliklardan foydalanadi. Paremiologik birliklardan foydalanib, ma'ruzachi o'z nuqtqini paremiologik birliklarning majuziy ma'nosi bilan tasdiqlashni maqsad qiladi. Paremiologik birliklardan foydalangan so'zlovchining nutqi keskin tus oladi.

Paremiologik birliklar – adog'i yo'q mavzularda insonlarning og'zaki bayonidan iboratdir. Mavzular esa insoniyat hayotining har bir qirrasini o'z ichiga oladi. Bularga turli tematik guruhlar kiradi: turli ijtimoiy vaziyatlar, oddiy odamlar hayoti va ularning hayotiy faoliyati; xalq tarixi; odamlarning umidlari va niyyatlari; inson ruhi va uning salomatligi; insonning tabiati va hayrixohligi; baxt, boylik, mehnatsevarlik, sabr, ochko'zlik, qashshoqlik, isrofgarchilik; Tangrimiz, din, e'tiqod, gunoh; ish, ishsizlik, chaqqonlik, dangasalik; san'at, ta'lim, oila, tarbiya; chorvachilik, chorvachilikning barcha turlari, dehqonchilik; ovqatlanish, salomatlik, ziddiyat, yaxshilik, yomonlik, insoniyat. "maqol mazmunida muhim hayotiy voqea, hikoyatlari uchratsih mumkin. Maqollar ularga bergan hikmat, natija, yakuniy, xulosa kabidir", deb tushuntiradi qozoq akademigi Malik Gabdullin .

Notiqlik san'ati qo'shiq va raqs kabi san'at turlaridan biri hisoblanadi. "Notiqlik san'ati – tinglovchining qalbini so'lashga, kimningdir fikrini o'rta qo'yishga, kimningdir qalbini tortishga, maqsadni amalga oshirish uchun kimgadir taslim bo'lishga na kimnidir biror narsa qilishga undaydigan san'atdir O'z nutqida paremiologik birliklardan foydalanish esa mantiqiy va obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi".

Ba'zi paremiologik birliklarning shakli va tuzilishi bir birigi o'xshab ketishini ularning tuzilishidagi soddalik bilan tushuntirish mumkin. Soddalik deganda maqollardagi vaziyatning metaforik tabiatini murakkab so'z yoki so'z birikmalari bilan emas, balki oddiy tilda tushuntirishga aytiladi.

Paremiologik birliklarning miqdor jihatda ko'payishi fir'avnlarning davridan boshlanadi. Bu davrda Misrda idealizm rivojlanaganligi sababli fir'avnlarning sharafiga, xususan, Zerahning o'g'illari o'zlari uchun kop'lab buyuk so'zlarni yozganlar. Izlanishlarga asoslanadigan bo'lsak, taxminan, miloddan avvalgi IV-III asrlarda antikdavr faylasufi Arastu tomonidan paremiologik birliklar qo'gozga tushirilganligi aniqlangan. Arastu o'zidan oldingi va o'z zamondoshlari tomonidan yozilgan she'lar va hikmatli so'zlarini doimiy ravishda qog'ozga tushirib borishga odatlangan. Va manashu bitiklar undan keyingi faylasuflar uchun katta ahamiyat kasb etgan. Yozib olingan hikmatli so'zlar qisqa, lo'nda, sheriyl shaklga solingan, ma'no jihatdan mustahkam bo'lganligi sababli ommani qiziqishini uyg'otgan.

Izlanishlarga tayanib aytadigan bo'lsak, ilk paremiologik birliklarning to'plami V asrda yozilgan "Eski Ahdlar Hikmatlar kitobi" hisoblanadi. 5 asrdan so'ng esa " Alfred maqollari" nashr etilib, paremiologik birliklar aks etgan yana biri manba deya e'tirof etildi.

Paremiologik birliklarning yana bir mashhur to'plami olim Desiderius Erazm tomonidan XV asrda Angliyada tuzilgan bo'lib, "Maqollar" deb ataladi. Bu maqollar to'plami 4251 maqolni o'z ichiga olgan. Bu vaqtdan beri to'planning bir qancha nashrlari chop etildi. Shunigdek, bu to'plam o'quvchiga o'z ichiga olgan har bir paremiologik birlikning lotincha tarjimalarini havola etadi. Va mana shu Erazm paremiologik birliklari boshqa xalqlarda ham

xalq orasida tarqalgan paremiologik birliklarni yig'ishga bo'lgan qiziqishni uyg'otdi.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, Desiderius Erasmning "Collectanea" maqollar to'plami 1500-yilda, 1508-yilda "Chiliades" to'plami esa Venetsiyada nashr etildi. Keyingi vaqtlarda, xususan, 1515-1536- yillarda bu to'plamlar kamchiliklari to'ldirilib, qayta nashr etildi.

Yuqoridagiga o'xshash to'plamlar faqatgina maqollarni emas balki Bibliyadan parchalar, va, shuningdek, taniqli faylasufklarga tegishli hikmatli so'zlarni, lingvistik termin bilan atasak 'aforizmlar'ni, ham o'z ichiga olgan. Misol uchun, taniqli ingliz shoiri va yozuvchisi Uilyam Shekspir va Rim hukmdori Yuliy Sezar asarlaridagi qisqa iboralar aholi orasida keng qo'llnilganligi tufayli, sekin asta paremiologik birliklarga aylanib ketgan. Ammo bu fikrni barcha ingliz paremiologik birliklariga tegishli deb aytish qiyin. Chunki bu fikrga to'laqonli suyanish Yevropada paremiologik birliklar Shekspir yoki Yuliy Sezar yashagan davrgacha mavjud bo'lmagan degan yanglish fikrga kelib qolishga sabab bo'lishi mumkin.

ADABIYOT RO'YHATI:

1. Abduazizov A. A. "Hozirgi zamon ingliz tili nazariy fonetikasi". Toshkent, 1986. 60-63 betlar
2. Azizov O. A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 1963.
3. Buranov Dj. B., Yusupov U. K., Iriskulov M. T., Sadikov A. S. Grammaticheskie strukturi angliyskogo, uzbekskogo i russkogoyazikov. Tashkent, 1986. 70-bet
4. Karimov Sh. K. «Tilshunoslikka kirish» kursidan praktikum. T., 1987. 14-bet
5. Kuchqortoev I., Kuchqortoeva R. «Tilshunoslikka kirish». T.,1976. 166-b
6. Kuchqortoeva R. «Tilshunoslikka kirish» kursidan maishlar. T., 154-b 1989.
7. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. Uzbek tili. Toshkent, 1978. 125-b
8. www.ziyonet.uz
9. www.wikipidea.com